



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



2024- YIL YANVAR-FEVRAL

SIRDARYO VILOYATIDA
BAJARILGAN QURILISH ISHLARI




2024- yil 1-mart holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda

Guliston sh.	371
Mirzaobod tumani	102
Sirdaryo tumani	96
Yangiyer sh.	72
Guliston tumani	69
Boyovut tumani	64
Sayxunobod tumani	63
Xovos tumani	54
Oqoltin tumani	48
Sardoba tumani	41
Shirin sh.	37

2024- yilning 1- mart holatiga Sirdaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 1017 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 371 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 36,5 % Guliston shahrida joylashgan.




Qurilish korxonalari soni, birlikda



Shuningdek, Guliston shahrida 371 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 36,5 %), Mirzaobod tumanida – 102 ta (10,0 %) qurilish korxonalari mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari


hajmi mlrd. soʻmda va oʻsish surʻati



2024- yilning yanvar-fevral oylarida, Sirdaryo viloyatida jami 455,3 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023- yilga nisbatan 128,7 % ni tashkil etdi.


Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

oʻsish surʻati oʻtgan yilga nisbatan, % da, mlrd. soʻm



2024- yilning yanvar-fevral oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 85,8 % yoki 390,7 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



Ma‘lumot uchun: qurilish faoliyati bu – o‘z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi


mlrd. soʻmda

	2023- yil	2024- yil	Ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	199,5	390,7	100,0
Guliston sh.	71,2	101,7	26,0
Shirin sh.	5,8	19,8	5,1
Yangiyer sh.	12,1	13,6	3,5
Boyovut	10,2	6,9	1,8
Guliston	15,6	8,6	2,2
Mirzaobod	35,7	172,1	44,0
Oqoltin	7,2	6,0	1,5
Sardoba	3,6	15,9	4,1
Sayxunobod	6,4	5,0	1,3
Sirdaryo	18,8	28,5	7,3
Xovos	12,9	12,6	3,2

2024- yilning yanvar-fevral oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari boʻyicha yuqori hajm, Mirzaobod tumani (172,1 mlrd. soʻm), Guliston shahri (101,7 mlrd. soʻm), Sirdaryo tumani (28,5 mlrd. soʻm) va Shirin shahrida (19,8 mlrd. soʻm) qayd etildi.


Yillar kesimida yangi qurilish ishlari

jamiga nisbatan ulushi, % da, mlrd. soʻm




2024- yilning yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

O'sish sur'ati



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.



205,1

mlrd. so'm

Bino va inshootlar qurish



241,5

mlrd. so'm

Fuqarolik obyektlarini qurish



1,9 %

8,7


mlrd. so'm

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


2024- yilning yanvar-fevral oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 45,1 % ulushni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 82,8 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 53,0 % ulushni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 2,9 m. ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 1,9 % ulushni va 2023- yilga nisbatan 36,2 % ni tashkil etdi.


2024- yilning yanvar-fevral oylarida bino va inshootlar qurilish ishlarini asosiy ko'rsatkichlari *Korxonalar turlari bo'yicha*



**Yirik qurilish
tashkilotlari**



**Kichik korxonalar
va mikrofirmalar**



Norasmiy sektor



Jami bino va inshootlarni qurish - 205,1 mlrd. so'm


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 13,6 % ni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 12,8 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yilga nisbatan 22,3 % punktga kamayib 61,9 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yilga nisbatan 9,5 % punktga ko'payib, 24,5 % ni tashkil etdi.

Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida bino va inshootlar qurilishi



Ma'lumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Sardoba tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 78,6 %), Xovos tumani (76,4 %) va Sayxunobod tumani (73,8 %) da kuzatildi.



76,8 %

Sardoba tumani



76,4 %


Xovos tumani




73,8 %

Sayxunobod tumani

2024- yilning yanvar-fevral oylarida
fuqarolik obyektlarini qurish ishlarini asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxonalar
va mikrofirmalar




Jami fuqarolik obyektlarini qurish - **241,5** mlrd. so'm

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 58,2 % ni tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan 53,3 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 41,8 % (53,3 % punktga kamaydi).

Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

2024- yilning yanvar-fevral oyida fuqarolik obyektlarini qurish



Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Mirzaobod tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 82,2 %), Sirdaryo tumani (52,0 %) va Guliston tumani (38,0 %)da kuzatildi.

82,2 %



Mirzaobod tumani

52,0 %




Sirdaryo tumani

38,0 %



Guliston tumani

2024- yilning yanvar-fevral oylarida
ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarini asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha




Jami ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari - 8,7 mlrd. so'm

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 6,0 % ni tashkil etdi.

Qolgan 94,0 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023- yilga nisbatan 6,0 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Guliston tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 6,2 %), Boyovut tumani (4,7 %) va Sirdaryo tumanida (4,6 %) kuzatildi.



6,2 %

Guliston tumani



4,7 %

Boyovut tumani




4,6 %

Sirdaryo tumani

2024- yilning yanvar-fevral oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari

2023- yil bilan solishtirganda –
28,4 m.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yil bilan solishtirganda –
76,8 %




Norasmiy sektor

2023- yil bilan solishtirganda –
125,1 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari *jamiga nisbatan ulushi*



2023- y.




2024- y.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 168,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023- yilga nisbatan 28,4 m. ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 35,4 % ga ko'payib, 37,1 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Jami yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan - 168,9 mlrd. so'm qurilish ishlari hajmi

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi *oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so'm*



2020-y.

2021-y.

2022-y.


2023-y.

2024-y.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar *Hududlar kesimida*



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Mirzaobod tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 74,8 %), Sardoba tumanida (70,1 %) va Shirin shahrida (12,8 %) qayd etildi.



● mlrd. so'm

Jamiga nisbatan ulushi



Mirzaobod tumani




Sardoba tumani



Shirin shahri

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2024- yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari *jamiga nisbatan ulushi*




2024- yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 51,9 % to'g'ri kelib, 2023- yilga nisbatan 35,9 % punktga kamaydi.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilga nisbatan 76,8 % ni tashkil etgan holda 236,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Jami kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari - 236,2 mlrd. so'm hajmi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi

oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. so'm




2024- yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlari

Hududlar kesimida



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Guliston shahriga (105,4 mlrd. so'm), Mirzaobod tumaniga (39,3 mlrd. so'm), Sirdaryo tumaniga (20,6) to'g'ri keldi.



Jamiga nisbatan ulushi



Guliston shahri




Mirzaobod tumani




Sirdaryo tumani

2024- yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor jamiga nisbatan ulushi



2023- y.




2024- y.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 11,0 % yoki 50,2 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2023- yilga nisbatan 125,1 % ga yetdi.

Shundan, 41,2 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2023- yilga nisbatan 132,1 %, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 0,9 mlrd. soʻmni va 64,1 %, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 8,1 mlrd. soʻmni va 107,0 % tashkil etdi.

Norasmiy sektor qurilish ishlarining yillar kesimidagi dinamikasi

oldingi yilga nisbatan, % da, mlrd. soʻm



2020-y.

2021-y.

2022-y.


2023-y.

2024-y.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor Hududlar kesimida



Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Sirdaryo tumanida (9,0 mlrd. so'm), Guliston shahrida (8,2 mlrd. so'm) va Mirzaobod tumanida (6,2 mlrd. so'm) qayd etildi.



Jamiga nisbatan ulushi



Sirdaryo tumani




Guliston shahri




Mirzaobod tumani

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2023-y.



2024-y.



■ Davlat mulkchiligi

■ Nodavlat mulkchilik

Davlat mulkchilik tashkilotlar tomonidan jami 15,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilik tashkilotlar tomonidan esa 439,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 3,4 % va 96,6 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Mirzaobod tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 98,9 %), Xovos tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 98,2 %) va Yangiyer shahrida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 98,2 %) qayd etildi.

Qurilish ishlari

USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Tel. 67 236-70-00 (2020)